



Depictions of Balls in English Literature: An Analysis in Social and Cultural Context

Firdavs ASLONOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025

Received in revised form

10 August 2025

Accepted 25 August 2025

Available online

15 September 2025

Keywords:

English literature,
ball,
wedding,
social life,
cultural values,
Jane Austen,
Thackeray,
comparative analysis.

ABSTRACT

This article provides an extensive analysis of ball scenes in English literature within their social and cultural context. It explores how balls functioned not merely as entertainment but as a reflection of class structures, gender roles, and cultural norms. Furthermore, a comparative perspective with Uzbek and Russian literature reveals both the similarities and differences of the ball/wedding motif across cultures.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp50-54>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz adabiyotida bal tasvirlari: ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ingliz adabiyoti,
bal,
to'y,
ijtimoiy hayot,
madaniy qadriyatlar,
Jeyn Ostin,
Tekkerey,
taqqosiy tahlil.

Ushbu maqolada ingliz adabiyotida bal tasvirlarining ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'рни keng yoritilgan. Bal sahnalari jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, gender rollari va madaniy qadriyatlarini badiiy ifoda etuvchi vosita sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz, o'zbek va rus adabiyotida bal/to'y motivining umumiy va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqilgan.

¹ Teacher, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: firdavsaslanov94@gmail.com

Описания балов в английской литературе: анализ в социальном и культурном контексте

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

английская литература,
бал,
свадьба,
социальная жизнь,
культурные ценности,
Джейн Остин,
Теккереи,
сравнительный анализ.

В статье подробно анализируется роль балов в английской литературе в социальном и культурном контексте. Бал рассматривается не только как форма развлечения, но и как отражение общественных структур, гендерных ролей и культурных ценностей. В сравнительном аспекте сопоставлены английская, узбекская и русская литературы, выявлены сходства и различия мотива бала/свадьбы.

Adabiyot jamiyat hayotini badiiy aks ettirish jarayonida ko'pincha turli marosimlar, urf-odatlar va ijtimoiy yig'inlarni o'z ichiga oladi. Ingliz adabiyotida ball (raqs va ko'ngilochar kechalar) ana shunday motivlardan biri bo'lib, XVIII–XIX asrlar davomida asarlar mazmunida keng o'rin olgan. Bal – bu nafaqat ko'ngilxushlik, balki ijtimoiy tartibning, madaniy qadriyatlarning, gender rollarining va jamiyatdagi turli tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarning ko'zgusi sifatida ham qadrlil.

Bal tasvirlari orqali yozuvchilar qahramonlarning ichki dunyosini ochgan, ijtimoiy tabaqalanish va psixologik qarama-qarshiliklarni ko'rsatgan hamda davr ruhini o'quvchiga yetkazganlar. Ushbu maqolada ball tasvirlarining ingliz adabiyotidagi o'rni, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati hamda o'zbek va rus adabiyotidagi shunga o'xshash motivlar bilan qiyosiy jihatlari yoritiladi.

Balning ijtimoiy ahamiyati. Bal ingliz jamiyatida faqatgina ko'ngilxushlik emas, balki ijtimoiy “institut” vazifasini ham bajargan. Ayniqsa, XVIII–XIX asr ingliz adabiyotida ball ijtimoiy hayotning eng muhim hodisalardan biri sifatida tasvirlanadi. Aristokratlar va yuqori tabaqa uchun bal – siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, yangi tanishlar orttirish, kelajakdagi oilaviy munosabatlarni belgilashning samarali vositasi edi.

Masalan, Jeyn Ostinning romanlarida bal sahnalari qahramonlarning jamiyatdagi o'rnini belgilashda, ularning xarakterini ochishda markaziy rol o'ynaydi. “Pride and Prejudice” asaridagi mashhur Meriton balida qahramonlarning dastlabki uchrashuvi syujet rivojiga turtki beradi. Bu sahna orqali muallif ijtimoiy tafovut, mag'rurlik va xurofot kabi tushunchalarni ijtimoiy hayot tasvirida yoritadi.

Shuningdek, bal ingliz adabiyotida ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlar shakllanishining asosiy sahnasidir. Ayollar uchun bu – jamiyatga kirish, o'zini namoyish qilish, turmush qurish imkoniyatini topish vositasi bo'lsa, erkaklar uchun – ijtimoiy mavqe va iqtisodiy mustahkamlikni namoyon qilish imkoniyatidir.

Bal tasvirining madaniy kontekstdagi ahamiyati. Bal madaniyatning muhim elementi sifatida asarlarda o'z ifodasini topadi. XIX asrda bal odob-axloq, kiyinish madaniyati, suhbat odobi, musiqiy did va estetik qarashlarning namoyon bo'lishi uchun maydon bo'lgan. Adabiyotda bu tasvirlar o'quvchini davr ruhiyati bilan yaqindan tanishtiradi.

Masalan, Tekkereyning “Vanity Fair” romanidagi bal sahnalari orqali muallif jamiyatning ikkiyuzlamachiligini, boylik va mansabga intilishdagi ma'naviy bo'shliqni fosh etadi. Bunday tasvirlar ijtimoiy satira vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Bal tasvirlari faqat jamiyatning tashqi hayotini emas, balki qahramonlarning ichki dunyosini ham ochib beradi. Odatda, balldagi raqs, suhbatlar, nigohlar va ishoralar orqali syujet dramatik tus oladi, yashirin sevgilar, ijtimoiy taqiqlar va ichki kurashlar yuzaga chiqadi.

Balning psixologik va estetik funksiyalari. Bal sahnalari nafaqat ijtimoiy hayotni tasvirlash, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ko'pincha yozuvchilar baldagi raqs, musiqaga mos kayfiyat, bir nigoh yoki oddiy suhbat orqali qahramonlarning ruhiy holatini yoritadilar. Masalan, Jeyn Ostinning "Emma" romanida baldagi kichik epizodlar orqali Emma va janob Naytlining o'zaro hissiy yaqinlashuvi tasvirlanadi. Shunday qilib, bal estetik muhit orqali insoniy his-tuyg'ularni badiiy ifodalashga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan bal qahramonlar uchun sinov vazifasini ham bajaradi. Raqs maydoni – bu maska taqish va o'zini turlicha ko'rsatish mumkin bo'lgan joydir. Ba'zi qahramonlar bu muhitda o'zini erkin ko'rsatadi, boshqalar esa ijtimoiy bosim ostida noqulaylikni his qiladi. Masalan, "Pride and Prejudice" romanida Elizabet Bennetning baldagi ilk uchrashuvlarida Darsi bilan bo'lgan dialoglari uning mustaqil fikrliligi va irodasini ochib beradi. Shu bilan birga, bu sahnalar Darsining ichki kechinmalari va kibri bilan kurashishini ham ko'rsatadi.

Estetik nuqtayi nazardan esa bal – bu rang-barang liboslar, musiqalar, raqslar, marosimiy odoblar orqali jamiyatning go'zallikka intilishining namunasidir. Adabiyotda bu tasvirlar o'quvchiga davrning ruhini, estetik qadriyatlarini his qildirish uchun xizmat qiladi. Shunday qilib, bal sahnalari inson ruhiyatini ochib beruvchi psixologik laboratoriya va madaniy-estetik tajriba maydoni sifatida qaraladi.

Bal va ijtimoiy tanqid. XIX asr ingliz adabiyotida bal ko'pincha ijtimoiy tanqid uchun qulay maydon bo'lgan. Tekkereyning "Vanity Fair" asarida bal sahnalari orqali muallif jamiyatning yuzaki qadriyatlari, boylik va mavqega intilish, shaxsiy manfaat ustuvorligi kabi masalalarni ochib beradi. Dikkins asarlarida ham jamiyatning tabaqaviy tafovutlari, ijtimoiy adolatsizlik va insoniy qadriyatlarga befarqlik bal yoki turli marosimiy yig'inlar vositasida ifodalanadi.

Charlz Dikkins ijodida ham marosimiy yig'inlar, jumladan, bal yoki ziyofatlar jamiyatning tabaqaviy tafovutlarini fosh qilish uchun vosita bo'lgan. Masalan, uning "Great Expectations" romanida ziyofatlar orqali aristokratiya va oddiy odamlar orasidagi keskin farqlar yoritiladi. Shu tarzda, baldagi tasvirlar jamiyatning axloqiy-ijtimoiy muammolarini o'quvchi ko'z o'ngiga olib keladi.

Bal – bu "yashirin sahna"dir. Bu yerda qahramonlar nafaqat raqs tushadilar, balki jamiyatdagi o'z rolini ijro etadilar. Boylik va mavqe ko'rsatish, o'zini namoyon qilish, ijtimoiy ustunlikni tasdiqlash kabi jarayonlar ballning ichki dramatzimini kuchaytiradi. Shu ma'noda, bal ingliz adabiyotida jamiyatning tashqi hashamatli, ammo ich-ichidan chiriyotgan ijtimoiy tuzilishining badiiy ko'zgusiga aylanadi.

Balning gender kontekstdagi o'rni. Bal tasvirlari ingliz adabiyotida ayol va erkak obrazlarining jamiyatdagi mavqei va rollarini ochib berishda muhim vosita bo'lib kelgan. XVIII–XIX asrlarda bal nafaqat ko'ngilochar tadbir, balki ayollar uchun ijtimoiy hayotga kirishning asosiy eshigi edi. Chunki ular jamiyatda cheklangan faoliyat maydoniga ega bo'lsalar-da, ball marosimlarida o'z jozibasi, odobi, bilimdonligi orqali ko'rinish berishlari mumkin edi.

Jeyn Ostin romanlarida ayol obrazlarining taqdiri ko'pincha bal sahnalarida belgilanadi. Masalan, "Pride and Prejudice" asarida Elizabet Bennet va janob Darsi o'rtasidagi dastlabki uchrashuv va keyinchalik paydo bo'ladigan romantik munosabat aynan balldagi epizodlarda boshlanadi. Bu esa ballning ayol uchun nafaqat ijtimoiy tanlov, balki kelajak hayotini belgilovchi burilish nuqtasi sifatidagi o'rnini ko'rsatadi.

Erkaklar uchun esa bal ko'proq iqtisodiy qudrat, ijtimoiy mavqe va mustahkam obro'ni ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan makon edi. Masalan, Tekkereyning "Vanity Fair" asarida ball marosimlari orqali erkaklarning jamiyatdagi obro'-e'tibori va boyligi qanday baholanayotganini ko'rish mumkin. Bu jarayonda ayollar ko'proq ijtimoiy ideal sifatida qaralsa, erkaklar iqtisodiy kuch va ijtimoiy hukmronlik timsoli sifatida ko'rinadi.

Shunday qilib, bal – gender munosabatlarining badiiy sahnaga chiqarilgan "mikromodeli"dir. U orqali yozuvchilar davrdagi jinsiy rollar, ayol va erkakning ijtimoiy vazifalari hamda kuch muvozanatini yorqin badiiy obrazlarda ifodalay olganlar.

Ingliz adabiyotida ballning tarixiy evolyutsiyasi. Bal motivi ingliz adabiyotida tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida bal ingliz aristokratiyasi hayotida muhim o'rin tutgan bo'lib, u ko'proq hashamat va ijtimoiy mavqe namoyishi sifatida tasvirlangan. Shu davr yozuvchilaridan Jeyn Ostin bal sahnalarini oilaviy hayot, sevgi va nikoh jarayonlari bilan bog'liq holda ifodalagan.

XIX asr o'rtalarida – Viktoriya davrida bal motivi ijtimoiy tanqidning markaziga aylana boshladi. Tekkerey va Dikkens asarlarida bal tashqi hashamat ortida yashiringan ijtimoiy muammolarni ochib beruvchi vosita bo'ldi. Bu davrda bal ko'proq jamiyatning ikkiyuzlamachiligi, sinfiy tafovutlari va insoniy qadriyatlardan uzoqlashishini ifodalovchi ramzga aylandi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, bal tasvirlari badiiy adabiyotda o'z mavqeini sekin-asta yo'qota boshladi. Chunki sanoat inqilobi, shahar madaniyatining rivoji va yangi turdagi ommaviy madaniyat shakllanishi natijasida balning jamiyatdagi an'anaviy vazifalari kamaydi. Adabiyotda esa bal ko'proq nostalgik ramz, tarixiy voqealik sifatida saqlanib qoldi.

Bugungi kunda ingliz adabiyotida bal motivi ko'proq tarixiy romanlarda yoki davr ruhini qayta tiklashga qaratilgan asarlarda uchraydi. Masalan, XX asr oxiri va XXI asr boshidagi ayrim postmodernistik asarlarda bal ko'proq madaniy kod sifatida ishlatiladi, ammo u avvalgi singari ijtimoiy maydon emas, balki estetik ramz sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz, o'zbek va rus adabiyotida bal/to'y motivining taqqosiy tahlili

Ingliz adabiyotida bal qanday ijtimoiy hayotni ifodalagan bo'lsa, o'zbek adabiyotida to'y marosimlari shunday rolni bajargan. To'y – bu ham jamoaviy yig'in, ijtimoiy tartib va qadriyatlarning namoyon bo'lish joyi. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida to'y voqealari qahramonlarning taqdirini belgilashda muhim sahna sifatida ishtirok etadi.

Rus adabiyotida bal motivi yanada kengroq va chuqurroq tasvirlangan. Masalan, Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asarida bal sahnalari orqali qahramonlarning ijtimoiy mavqei va shaxsiy psixologiyasi yoritiladi. Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanidagi mashhur balda esa Nataxsha va Andrey Bolkonskiyning raqsi nafaqat estetik go'zallik, balki syujetning burilish nuqtasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ingliz, rus va o'zbek adabiyotlarida bal/to'y motivi bir-biriga o'xshash vazifalarni bajaradi: jamiyatni tasvirlash, shaxsiy taqdirlarni belgilash va madaniy qadriyatlarni yoritish.

Bal tasvirlari ingliz adabiyotida nafaqat badiiy element, balki jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotini ifodalovchi vositadir. Ular orqali yozuvchilar ijtimoiy tabaqalanish, gender rollari, ma'naviy qadriyatlar va insoniy orzularni ko'rsatganlar. Bal motivining keng o'rin olishi uning jamiyat hayotida tutgan real o'rnini ham ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil esa ingliz, rus va o'zbek adabiyotida bal/to'y motivining o'xshashligini ko'rsatib, turli milliy adabiyotlarda marosimiy sahnalar jamiyat ko'zgusi sifatida ishlashini namoyish etadi. Shu bois bu motivni turli madaniy kontekstlarda chuqur o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Austen, J. "Pride and Prejudice". London: Penguin Classics, 2003.
2. Thackeray, W. M. "Vanity Fair". London: Oxford University Press, 2001.
3. Dickens, C. "Great Expectations". London: Wordsworth Classics, 1992.
4. Tolstoy, L. N. "War and Peace". Moscow: Progress Publishers, 1989.
5. Pushkin, A. S. "Evgeniy Onegin". Trans. James Falen. Oxford: Oxford University Press, 1995.
6. Hoshimov, O. "Ikki eshik orasi". Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015.
7. Watt, I. "The Rise of the Novel". London: Chatto & Windus, 1957.
8. Armstrong, I. "The Radical Aesthetic". Oxford: Blackwell, 2000.
9. Butler, M. Romantics, Rebels and Reactionaries: English Literature and its Background, 1760–1830. Oxford: Oxford University Press, 1981.
10. Eagleton, T. The English Novel: An Introduction. Oxford: Blackwell, 2005.
11. Kholikov, B. A. (2020). Principles of development of detective literature. Bulletin of Gulistan State University, 2020(3), 29-35.
12. Насруллаева, Н. З. (2018). Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши. Филол. фанлари докт. диссертацияси автореф-т. Филология фан. доктори дисс. автореферати (DcS). Тошкент.